

ALEKSANDR ARKADOVICH FAYNBERG TIMSOLIGA TASNIF

Eshnazarova Gulsanam Faxriddin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Aleksandr Arkadovich Faynberg ijodi hayotimizda ulkan ma'no va mohiyat kasb etadi. Biz bu ijodkorni nafaqat Vatan timsolini qalbga singdirgan shaxs sifatida, balki o'z she'rlari bilan olam- olam ma'no ifodalagan ijodkor sifatida ham tan olganmiz desam mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, ijodkor o'z she'rlarida tabiatga mehr-muhabbat kabi timsollarni eng sodda misollar bilan tushuntiradi.

Kalit so'zlar: dramaturg, ijodkor, vatanparvarlik, umr yo'ldosh va tabiatga oshnolik ruhi.

Kirish. Aleksandr Faynberg ijodi uzbek she'riyatida o'rni beqiyos va qiymatlidir. Uning tarjimalari va she'rlari hali hamon dunyo xalqlari orasida barhayot yashab kelmoqda. U yoshligidanoq ilm olish uchun jonini jabborga bergulik holatda kurashgan. Bunga oddiy misol tariqasida aytish mumkinki, U Toshkent topografiya texnikumini bitirib, Tojikistonda harbiy xizmatni o'tasada yana Toshkent filologiya fakultetining talabasi sifatida qabul qilinib, yosh ijodkor talabalar gazetasida ishlagan. Hayot turli xil sinovli yo'llarni insonlarga duch qilsa ham Aleksandr Faynbergdek adiblarimiz bu yo'llardan muvaffaqiyatli tarzda o'ta olgan.

Xo'sh, Aleksandr Faynberg o'zi kim ijodkor, davlat arbobi yoki ota ya'ni umr yo'ldoshmi? Albatta har bir o'quvchi Faynberg hayoti haqida izlanishlar olib borar ekan shu savol barchani birdek qiynashi tayin. Aleksandr Faynbergning avlodlari, farzandlari haqida to'liq ma'lumot berilmagan bo'lsada, ijodkor 1961-yil Inna Glebova Koval bilan turmush qurgani va oila tashvishlariga ham ma'suliyat bilan yondoshganiga shubha yuq.

Aleksandr Faynberg o'z davlatidan yiroqda yashasada, Vatanini ya'ni Toshkent shahrini unutmagan vatanparvar insondir. Hatto u takidlab o'tadiki, Balki mening Toshkentda tug'ilishim ham oldindan taqdirimga yozib quyilgandir, axir ota-onam ham aynan men tug'ilishimdan 2 yil oldin Novosibirskdan ko'chib kelishgan bo'lsa deydi ijodkor.

Aleksandr Faynberg she'rlari nafaqat tabiatni asrashga, balki insonlar qalbida tabiatga nisbatan mehr- muhabbat urug'i gullab yashnashiga sabab bo'luvchi omil hisoblanadi. Masalan:

Yulduzlarni asragan falak
Teran dengiz asrar durlarni
Daftarimdan yirtilgan varoq

Asra men yozgan she'rlarni
She'r nafaqat uqimoq-uqmoq
She'r yurakdagi ulkan bir tovush
Qutqargandek tegrada suqmoq
Tebrangandek ko'llarda qamish
Har satrim jon, har she'rim yurak .

Ijodkorning bunday oltinga teng misralari bilan biz yulduzlarni qanchalik falak asragan bo'lsa, Aleksandr Faynberg ham avlodlarga meni she'rlarimni ham asrang deb nola qilmoqda . Tabiat shunday timsolki, u har doim o'z ne'matlarini, xuddi ona bolasini ko'z-qorachig'idek asragandek asrashi nazarda tutilmoqda.

Xulosa: Aleksandr Faynberg ijodi shubhasiz xalqimiz orasida o'rni beqiyosdir va shuni aytish joizki, o'quvchilar tomonidan ijodkorning faoliyati borasida hali hanuz targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Uning she'rlarida vatan tarovatini xis ettiruvchi va yosh avlodga o'rnak bo'lib turuvchi ulkan ma'no yashirindir. Ijodkor ham bu timsollarni yanada tushunarliroq bo'lishi uchun tabiat elementlaridan foydalangan holatda tasvirlab beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. G.V.Malixinaning "A.A.Faynberg, lirikasi" [uz.wikipedia.org\Toshkent2007](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
2. Shukurova.S "Aleksandr Faynberg ilmiga bo'lgan e'tibor va intilish" yanvsr Toshkent2025
3. Sirojiddinov Sh.Jo'rayeva G.U Hamdam Abdullayeva M A programm and methodical manual for studying Alexandr Faenberg's life and work Toshkent 2020
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)